

Ona yurtning - oltin beshiging

O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MILLIY KITOB PALATASI
INV. №

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

2005-yil 26-sentabr - 2 oktabr N:39 (66528)

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va
axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi
Xalq Ta'limi Vazirligi,
«KAMOLOT» Yoshlar
Ijtimoiy Harakati,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» Hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro
xayriya jamg'armasi.

Aziz bolalar!

Muallim noni shirin bo'ladi, deyishadi. Kamtar, kamsuqum, ziyoli ustozlar nonining shirinligi - hayot zavqi, turmush lazzi - shogirdlar kamolidan, farovonlashib borayotgan yurt jamolidandir.

«Darslarimiz tugab, maktabdan qaytganimizdan so'ng darhol mollarimizni boqishga otlanardik. Ularni ufqlar bilan tutash dashtlarga yoyib, o'rtoqlarim bilan birga berilib dars tayyorlashga kirishardik. Vazifalarimiz tugagach, o'qigan badiiy kitoblarimiz haqida qizg'in munozara boshlanar, zerikishga o'rin qolmasdi. Ba'zan kun kech bo'lib qolganini ham sezmay


qolardik. Bir so'z bilan aytganda, maktabdan tashqarida ham dars davom etardi. Bunga sabab, ustozlarimiz bizni bilimga qiziqitira bilganidandir», deydi. «Vaqt ranglari», «Janub qushlari», «To'rg'ayli manzillar», «Ufqlar orti bepoyon», «Kanglum, o'zing», «Sen», «Tavr», «Ruhimning qayg'usi» kabi she'riy to'plamlar muallifi, «Sharq yulduzi» jurnali she'riyat bo'limi mudiri shoir Ikrom

«...Kimki ustozidan adab o'rganmaydi,
u behudago'ydir».

Abu-bakir Kattoniy.

OTAMUROD.

1-oktabr - ustoz va murabbiylar kuni mamlakatimizda keng nishonlandi. Biz aziz murabbiylarimizga sog'lik, oilaviy xotirjamlik tilab, quyida shoir Ikrom OTAMURODning USTOZ HAQIDA SO'Zini e'lon qilmoqdamiz.



MUALLIM, SIZ - TURFA DARSLAR OLAMI!

Ikrom OTAMUROD:

Muallim... Shu birgina so'z zamirida dunyocha ma'no yashaydi. Aytishlaricha, hazrat Navoiy otda kelayotganlarida qarshilaridan bir bola kelayotgan ekan. Ular shu zahoti otdan tushib, bolani mindirib, o'zlari piyoda yo'lga tushibdilar. Sababini so'rganlarida uning bobosi meni o'qitgan edilar, deya javob bergan ekanlar. O'qituvchi, u ma'rifat odami. Shogirdlarining dilini tushinib o'ziga qayirib ola biladigan inson. O'quvchilik paytimizda har kuni maktabga partalarimizni sog'inib kelardik. Bir-birimizdan kuchliroq o'qish shiorimiz edi. Birinchi o'qituvchimiz Ochil aka Aslonov (marhum), adabiyot muallimimiz Nurulla Hamroyev, fizika fani o'qituvchisi Chori To'rayev, ta'lim maskanimiz direktori Rajab Qurbonovlarning bizga bergan saboqlari kelgusi umr yo'limizni ziyo bo'lib yoritdi. Ular o'z fanlariga nisbatan cheksiz mehr ko'zi bilan qarardilar. Bu mening o'quvchim, degan qabilidagi ichki iftixor tuyg'usini iliq nigohlari-yu, beg'ubor so'zlaridan hamisha anglab turardik. Qalbi daryo ustozlarimiz xuddi padarimiz singari boshimizni silardilar. Birgina men emas Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani Komilon qishlog'idagi ziyo maskanida ta'lim olgan barcha o'quvchilarning ertasi go'yo muallimlarimiz farzandlarining ertasi edi.

Haqiqat dilda yashaydi. Shu bois, u kuchlidir. Vatan, xalq, til, kabi so'zlar dilda o'z imoratini qurgan, uni butun tutadigan ustun so'zlardir. Ular osonlikcha aytilmaydi. Bu tog' so'zlarning cho'qqilari ustozlarning sabog'idagi dovonlardan boshlanadi. Muallimlik maqomi faqatgina darsda emas, balki yashash tarzimizda ham mavjud bo'lishi lozim. Ana shundagina ustoz nufuzi yuksalib boraveradi.

Ta'lim maskanimizda Nortosh opa ismli kutubxonachimiz bo'lib, ular o'z kasblarini jon-dildan sevardilar. Qachon ziyo maskaniga kirsam ularning yirtilgan kitob, gazeta yoki jurnallarni hech erinmasdan yelimlab o'tirganlarini ko'rardim. Ular qo'ldan-qo'lga o'tib varaqlari ko'chib ketgan bo'lsa-da, yana asl holiga qaytardi. Nortosh opa bo'lsa kundan-kunga kitobxonlar soni ko'payayotganini quvonch bilan ta'kidlardilar. Ziyo maskanimizda deyarli barcha asarlar mavjud edi. Primqul Qodirovning «Qora ko'zlar», Maxsud Shayxzodaning «Mirzo Ulug'bek», Odil Yoqubovning «Muqaddas» kabi asarlarini talashib o'qirdik. Ularni o'qibgina emas, balki uqib borardik. Ko'p o'qiganimiz bois, nutqimiz ravonligi-yu fikrimiz ravshanligi ortib borardi.

Dadamni eslay olmayman. Yoshligimda olamdan o'tgan ekanlar. Onam - Salomat aya kechayu-kunduz dalada mehnat qilib, kuymas kassov yanglig' meni tarbiyalab voyaga etkazganlar. Tinimsiz yugur-yugurlardan biron marotaba bo'lsa-da noliganlarini eshitmaganman. Ularning halol mehnat orqasidan edirgan halol luqmalarini hamisha oqlashga intilaman. Ustozlarim ko'rsatgan haq yo'l hamda onajonim o'gitlariga amal qilib hayotda kam bo'lmadim.

Yaxshilar, yaxshiliklar hamroh bo'lgan yo'limda Boburjon, Gulruh, Navfal, Feruz ismli farzandlarim kamolga yetmoqda. Farzand uchun ota-ona birinchi muallim bo'lsa, bebaho fazilatlar egasi ustoz uning qirralarini shakllantirar ekan. Qilni qirq yorib, hayot degan xilqatni anglatuvchi, farzandlarimizga og'ishmay saboq berayotgan ustozlarimizni bayramlari bilan qizg'in qutlayman. Ular el baxtiga hamisha omon bo'lishsin.

MUALLIM

Muallim, siz - turfa darslar olami,
Yuragida ixlos, xoslar sirlashgan.
Imlolar jadvali, sonlar ko'lami,
Qadim ul asrorlar sizda birlashgan.

Ruhiy va jug'rofiy kengliklar bari,
Sizning qalbingizda namoyon, yaxlit.
Shuur maydonining masalalari:
Darak gap, undov gap, so'roq gap taxlit.


Muallim, siz-kabir, siz-ulug', lekin,
Dilni munislikka oshno etgansiz.
Davralar to'riga o'tmayin, sekin,
Qimtinib quyidan kelib, ketasiz.

Qalb qo'rin bergansiz dunyoning sherday
Ot minib, go'z urgan nechalariga.
O'zingiz hokisor yurasiz birday,
Piyoda saboqning ko'chalarida.

Nuri siyroj porlagan ko'zingizda,
Armonlar lim-limdir, umidlar lim-lim.
Armonlarni qoldirib o'zingizda,
Uchirgaysiz umidlarni muallim.

Ma'rifat chashmidin suv ichgan faraxt-
Muruvvat sizga tan, mehr sizga tan.
Ilm tuprog'ida bo'y tortgan daraxt-
Ziyo qalbingizni etmishdir Vatan.

Muallim, siz - turfa darslar olami...



DIQQAT, YANGI TANLOV!



Aziz o'quvchilar, yodingizda bo'lsa, gazetamizning o'tgan yilgi sonlarida «Bola huquqlari to'g'risida»gi Konvensiyaning ayrim boblarini e'tiboringizga havola qilgandik. O'z huquq va burchlaringiz haqidagi bu moddalarni sinchiklab o'qib, uqib olgandirsiz, degan umiddamiz.

Bu boradagi bilimlaringizni sinab ko'rish, yanada boyitish, «Inson huquqlari bo'yicha umumjahon Deklaratsiya»si, «Bola huquqlari to'g'risida»gi Konvensiya va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini chuqur o'rgatish, huquqiy bilim va madaniyatingizni oshirish maqsadida Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston respublikasi milliy markazi, «Demokratlashtirish va inson huquqlari» jurnali hamda «Tong yulduzi» gazetasi tahririyati hamkorligida «BOLA HUQUQLARI - BOLALAR NIGOHIDA» deb nomlangan tanlov e'lon qiladi.

TANLOVNING SHARTLARI:

1. Bola huquqlari mavzusida maqola, bayon, insho yozish;
2. Shu mavzuda rasmlar chizish;
3. Krossvord, boshqotirma, o'yinli topshiriqlar tuzish;
4. «2005 - Sihat-salomatlik yili»ga doir - davolanish huquqi;

-sport musobaqalarida qatnashish huquqi;
-sog'lomlashtirish muassasalarida dam olish huquqi;

-sport va boshqa yo'nalishdagi to'garak va seksiyalarda shug'ullanish huquqi
mavzularida maqola va xabarlar yozish.

Shuningdek, quyidagi savollarga javob yo'llash talab qilinadi:

1. Bolaning tarbiyalanishi va rivojlanishi uchun kim asosiy javobgar sanaladi?
2. Oila g'amxo'rligidan vaqtincha yoki doimiy mahrum bo'lgan bolaga alohida himoya va yordamni kim ko'rsatadi?
3. Bolaning ilm olish huquqi teng imkoniyatlar asosida amalga oshishi uchun qanday sharoitlar joriy etilgan?
4. Bolani ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh qanday maqsadlarda belgilab qo'yilgan?

MUDDATI:

Tanlov 2005-yil 1-dekabrda yakunlanadi. G'oliblarni aniqlash va taqdirlash marosimi 10 - dekabr - Inson huquqlari bo'yicha umumjahon Deklaratsiyasi qabul qilingan kunda o'tkaziladi.

Mustaqil O'zbekistonimiz bag'ri keng bolajon diyor. Bizdek ko'zi ojiz bolalarning ham bu saxovatdan bahramand bo'lishimiz dilimizga bir olam zavq bag'ishlaydi. 330 nafardan ziyod o'quvchilar ta'lim olayotgan Toshkent shahridagi Yo'ldosh Oxunboboyev nomli 20-ko'zi ojizlar

o'quvchilarining muvaffaqiyatlari arzigulik. Shahrimizdagi 6-sonli musiqa maktabi filialidan tashkil topgan musiqa bo'limi ta'lim maskanimizning ko'rki hisoblanadi. Bu bo'limda chang, rubob, g'ijjak, doira, fortepiano, xor va vokal yo'nalishlari bo'yicha mohir ustozlarimiz saboq beradilar. 2005-yilda o'tkazilgan Muxiddin Qoriyoqubov nomidagi

KO'ZIMIZ OJIZ-U, KO'NGIL KO'ZIMIZ OCHIQ

maktabimiz 1929-yildan buyon faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Bu yerda yotoqxona, oshxona, sport maydonchasi bolajonlar xizmatida. Ta'lim maskanimizda ko'zi ojiz bolalar bog'chasi ham mavjud. Maktabimizda o'quvchilarga to'rt mahal issiq ovqat beriladi. Asosiy fanlarimizdan tashqari maxsus jismoniy tarbiya, mehnat ta'limi hamda mustaqil harakatlanish fanlari o'tiladi. Bu borada mohir difektolog-pedagoglarimiz Svetlana Barisova, Erkin Abdullayev, Matluba Madumarova, Gennadiy Kotov, Ravilya Babayeva, Galina Kashtanova, Faiza Shabayevalarning berayotgan saboqlaridan barcha o'quvchilar va ularning ota-onalari mamnun bo'lishmoqda. Ta'lim maskanimizda turli to'garaklar mavjud. Ayniqsa, shaxmat-shashka to'garagi doimo bolajonlar bilan gavjum. Birgina bu emas, sanayversam maktabimiz

ko'rik-tanlovda aktiv ishtirok etgan o'quvchilarimizdan Soibjon Madrahimov g'ijjak ijrosi uchun I-o'ringa, Bahodir Toshxo'jayev rubobdagi ijrosi uchun II-o'ringa, Farida Xaitova kuylagan qo'shig'i hamda Ulug'bek Mamatxonovlar changdagi ijrosi uchun rag'batlantiruvchi mukofotlarga sazovor bo'lishdi. Ularga qimmatbaho sovg'alar va diplomlar topshirildi. Maktabimizda ko'plab sharoitlar mavjud. Ammo muammolarimiz ham yo'q emas. Bizga Brayli sistemasida chop etiladigan maxsus o'quv darsliklari yetishmaydi. Shu bois ba'zi fanlardan puxta bilim ololmayapmiz. Mutasaddilarimiz bu masalaga ijobiy yondoshsalar nur ustiga a'lo nur bo'lardi.

Ulug'bek MAMATXONOV,
9-sinf o'quvchisi.

Xorazmni bilasizmi?



Xorazm vohasi tarixiy obidalar bilan jahonga dong taratgan. Xivadagi ochiq osmon ostidagi tarixiy muzeyni ko'rish ishtiyoqida dunyoning to'rt burchagidan sayyohlar oqib keladi. Necha-necha asrlardan so'zlab turuvchi bu Kalta minora-yu Ajal minoralar bizning ajdodlarimizning zakovatidan boxabar qilib turadi. Har bir g'ishtning marom bilan



terilishidan tortib, ketmas bo'yoqlarning ishlatilishigacha - barchasi bu iqtidordan dalolat. Men Xorazmni ko'rmagan tengdoshlarimga bir safar uyushtirishlarini istardim. Ular ham qadimiy tariximizdan boxabar bo'lishsin.

Madina ERMETOVA,
Xorazm viloyati, Xiva shahridagi
Pahlavon Mahmud nomli maktabning
6-sinf o'quvchisi.

MEHRIDARYO USTOZLAR

Vatan, Ona, Ustoz. Bu so'zlarni eshitganda, inson qalbi yorishib ketadi. Inson dunyoga kelganida, uni vatan quchadi, ona issiq bag'riga olib, unga mehr bilan oq sut berib, erkalaydi. Ustoz esa, uning jajji qo'llaridan ushlab, bilimlar va ezguliklar dunyosiga boshlab kiradi. Ana shunday qalbi daryo, mehr va muhabbatini



chegarasi yo'q bo'lgan biz uchun aziz ustoz Gulnora opa Obidovaga bizning mehrimiz ham cheksiz. Ular maktabimiz faxri, bir necha yillardan buyon ona tili va adabiyot uslub birlashma raisasi. Oliy toifali ustozimiz 20 yildan buyon umrlarini yoshlarga bilim berish bilan o'tkazib kelayaptilar. Ularning bu mehnatlari samarasiz qolmagan albatta. Bizning mana shunday ustozimiz borligidan va ularning qo'llarida tahsil olayotganimizdan faxrlanamiz.

USTOZIMGA

Yorug' yo'lga chorlagan,
Ko'kda quyosh porlagan,
Mangu dildan e'zozim,
Mehribonim ustozim.
Shodligimdan quvongan,
Qayg'umda bag'ri yongan,

Sabog'idan el qongan,
Mehribonim ustozim.
Samimiylik shiori,
Eng katta boylik ori,
Shogirdlaridir bori,
Mehribonim ustozim.

Munisa UBAYDULLAYEVA,
Toshkent shahri, Yunusobod tumanidagi 97-maktabning 8-«V» sinf o'quvchisi.

Maktabimiz katta keng va yorug'. O'qib, bilim olishimiz uchun barcha sharoitlar muhayyo. Turli yo'nalishlarga oid to'garaklar muntazam ishlaydi. O'z kasbining fidoiysi bo'lmish o'qituvchilarimiz o'quvchilarning bilimiga bilim

KOMPYUTER NIMALIGINI BILAMIZ, AMMO...
qo'shishdan charchamaydilar. Ular yangi-yangi uslublarni qo'llab, noan'anaviy tarzda dars o'tish tarafdori.

Sinf rahbarimiz Nodila opa Shamshetova bizni ma'naviy yetuk bo'lishimiz uchun har chorshanba kuni birinchi soatda davriy nashrlar bilan tanishtiradilar. Unda biz siyosiy yangiliklar, ijtimoiy voqealar haqida bahs-munozara o'tkazamiz. Bizni o'ylantiradigan masala boshqa. Hamma sharoitlari muhayyo maktabimizda kompyuter yo'q. Boshqa tengdoshlarimiz internetdan bemalol foydalana oladigan zamonda biz oddiy harf terish imkoniyatiga ham ega emasligimizdan nadomat chekamiz. Kompyuter savodxonligiga qachon qadam qo'yarkanmiz, deb orzu qilamiz.

Oydin ESHMURODOVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi,
Xo'jayli tumanidagi 3-maktabning 6-sinf o'quvchisi.



Ba'zan esini tanigan bolalar endi-endi tili chiqayotgan ukachalarini o'rta olib kalaka qilib o'tirishadi. Masalan:

«JUDAYAM BEGUNOH, YOLG'IZSAN, BOLAM...»

«Mo'minjon, qulog'ing qani?» deb so'raydilar. Tetapoya Mo'minjon birpas o'ylanib turib burnini ko'rsatadi. Bolalar kulib yuborishadi. Beg'ubor kulguga sabab bo'lgan ikki yashar Mo'minjon so'zlarni yodlab olgan-u, lekin hali o'sha so'zlarning ma'nosini anglamaydi, shu bois quloq bilan burunning farqiga bormaydi. Agar bir yildan so'ng undan qulog'ing qani deb so'rasangiz bormi, oriya qo'zib qulog'ingizning ostiga shavla qaynatib qo'yadi (ya'ni, qulog'ingiz ostiga shapaloq tortib yuboradi). Chunki bachkana savollarga javob beradigan davrdan, kalaka bo'lib birovlarini kuldiradigan yoshdan o'tgan bo'ladi. Afsuski, esli-hushli «kattalar» burni oqib yuradigan bolalik davridan osonlikcha uzoqlashib ketolmaydi, ba'zan soqoli kindigiga tushib qolgan elboshi ham qovun tushirishdan charchamaydi. Bunga tarixdan ko'plab misollar keltirish mumkin.

Buyuk jasorat sohibi bo'lmish Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining «Umr kitobi»da hijriy 902 (m. 1496-1497) voqealarini bunday bayon qiladi:

«Ushbu yil Sulton Husayn mirzo bilan Badiuzzamon mirzo orasidagi nikorlar urushg'a tortti. Tafsili budurkim, o'tgan yil Balxni va Astrabodni Badiuzzamon mirzog'a va Muzaffar mirzog'a berib, yukundurub edilar kim, nechuk mazkur bo'ldi, o'shal muddatdin bu muddatqacha g'alaba elchilar bordilar va keldilar. Oxir Alisherbek ham elchilikka keldi. Harchand sa'y qildilar, Astrabodni inisiga bermakka rozi bo'lmadi. Dedikim, mening o'g'lim Mo'min mirzoni xatna qilg'onda mirzo anga bag'ishlabtur...

Oxir otaliq, o'g'ulluk orasida bu guftu-go'ylar anga munjar bo'ldikim, otasi otasining ustiga va otasi o'g'lining ustiga Balx va Astrabodqa cherik torttilar... Bu mirzolar andoq ifrot bila fisq va ayshga mashg'ul edilar kim, otasidek kordiyda va kordon podshoh tushchilik yo'l kelib, ramazondek mutabarrak va aziz oyg'a kechalik fursat qolib, otasidan iymanmay, Tengridin qo'rqmay, hanuz ishi chog'ir ichmak edi nashot bila, majlis oroliq edi inbisot bila. Muqarrardurkim, mundoq bo'lg'on kishi andoq shikast topqay va nav' o'tgan elga har kim dast topqay... Necha yilkim, Astrobod hukumati Badiuzzamon mirzoda edi.

Barchasini munda boy berdi. Ko'p eli bu uchmada zoye bo'ldi...»

Qorni to'ysa ham ko'z to'ymaydigan temuriyoda mirzolar orasidagi taloshlarga mo'ysafid Alisher Navoiy aralashadi, u otobolarni insofga chaqiradi, lekin bundan hech qanday foyda chiqmaydi.

Xurosonda temuriylar saltanati inqirozga yuz tutgan kezlarda Bobur mirzo 13 yashar o'smir edi. U sarvari koinotning shifoati bilan 12 yoshda Farg'ona viloyatida podshoh bo'ladi. O'sha paytlarda Farg'ona viloyati yetti qasabadan iborat bo'lib, O'sh shahri Andijondan to'rt yig'och (taxminan, 28 km.) masofada joylashgan. Bobur mirzo O'shga bunday ta'rif bergan: «Bahori bisyor yaxshi bo'lur. O'shning fazilatida xeyli ahodis vorid bo'lubtur. Qo'rg'onning sharqiy janubiy bir mavzun tog' tushubtur, Baroqo'hg'a mavsum. Bu tog'ning kullasida Sulton Mahmudxon bir hujra solibtur, ul hujradin quyiroq-ushbu tog'ning

tumshug'ida tarix to'qqiz yuz ikkida men bir ayvonlik hujra soldim. Agarchi bu hujra mundin murtafe'dur, vale bu hujra bisyor yaxshiroq voqe bo'lubtur: tamom shahr va mahallot oyog' ostidadur».

E'tibor berdingizmi, temuriyodalarda Xurosonda bir-birining go'shtini yeb yotgan, hazrat Navoiyni ham sarson qilib yurgan kezlarda 13 yashar Bobur Mirzo O'sh qasabasini obod qiladi!..

Zukko o'quvchilarimiz bu maqola tarixga bag'ishlangan ekan deb o'ylayotgan bo'lsa, yanglishadi: biz sizga qulog'imizni ko'rsatdik, xolos. Endi burnimizni ham ko'rsatamiz.

Moziyga qaytib boshingizni og'ritgan bo'lsak, uzr-ma'zurimizni qabul qilgaylar: azbaroyi yaqinda bosh muharririmiz Umida opamiz va ulkan bir guruh olimu ulamolar, shoiru fuzalolar bilan birgalikda ziyoratga borganimiz O'sh shahri haqida muxtasar ma'lumot berdik, xolos. O'shga bormoqdan niyat faqat ziyorat yoki sayohat emasdi, balki buyuk millatparvar shoirimiz Shavkat RAHMON tavalludining 55 yillik tantanalarida ishtirok etmoqni ko'ngilga tugib qo'ygan edik. Hargiz yana moziyga qaytmaslik uchun Bobur mirzoga Shavkat Rahmonning qanday aloqasi bor degan savolga aniqlik kiritib qo'ymoqchimiz. «Ilmiy ateizm»-xudosizlik, munofiqlik avj olgan Sho'ro zamonasining 70-yillarida xalq orasida Sulaymontog' deb atalgan O'sh tog'ida 500 yil muqaddam Bobur mirzo barpo etgan go'zal hujra-parvoz etmoqqa shaylanib turgan oppoq kaptarni eslatadigan mo'jizaviy imorat batamom buzib, vayron qilinib, g'ishtlari partiya xodimlari tomonidan talon-taroj qilinadi. Shavkat Rahmon esa o'shlik birodarlari bilan hamkorlikda 80-yillarning o'rtalarida buzilgan hujrani asl holida tiklanishiga bosh-qosh bo'ladi. Hozir Bobur mirzo soldirgan hujra Sulaymontog' cho'qqisida qad rostlab turibdi. Tog'ning narigi betida ulkan g'or ham bor. Safar chog'ida g'or poyida Qur'on tilovat qilindi va xohlovchilar g'orning ichiga kirdi. Ammo Umida opamiz «Nafasim bo'g'ilib qoladi», deb ichkariga kirmadilar. Qo'rqdilar shekilli. Bekorga qo'rqmagan ekanlar, chunki g'orga kirib, hiyla payt yo'q bo'lib ketgan shoira opamiz Zebo Mirzayeva: «Xuddi go'rga kirib chiqqandek bo'ldim», deb oqarib ketgan yuzlarini Bura daryosidan sharqirab oqayotgan muzdek suvga chayib, arang o'ziga keldi.

10-sentabr kuni erta tongda shoir Shavkat Rahmon tug'ilgan xonadonda ukasi Mahmudjon tomonidan mehmonlarga nonushta berildi. Jonkuyar tashkilotchi Alouddin Mansurning taklifi bo'yicha professor Umarali Normatov, shoir Tursunboy Adashboyev, Asqar Mahkam va boshqalar Shavkat Rahmon to'g'risidagi xotiralarini qisqacha so'zlab berdi. Shundan so'ng O'sh shahridagi 47-o'rta maktabdan fidokor inson A'zamjon Rahim tashabbusi bilan tashkil etilgan Shavkat Rahmon muzeyi ziyorat qilindi va o'quvchilar bilan ijodkorlar uchrashuvi o'tkazildi. Unda Umida Abduazimova o'shlik o'quvchilarni «Tong yulduzi» gazetasiga obuna bo'lishga, obuna bo'lishning iloji bo'lmasa, Andijondan xarid qilib olishga qizg'in da'vat etdilar. «Agar gazetamizga obuna bo'lsangiz yoki uni muntazam o'qib borsangiz, o'zbekistonlik tengdoshlaringiz hayoti bilan

-Tog' yonida tursangiz uning yuksakligini sezmaymiz. Bu eski gap. Biz ham Shavkat bilan yonma-yon yashab uning bunchalar buyukligini sezmagani ekanmiz. Biz Shavkat Rahmondan uzoqlashib borganimiz sari uning buyukligi, she'riyatining o'lmasligi tobora yaqqol namoyon bo'layotir, dedi.

Safarnoma

Adabiyotshunos
Ibrohim HAQQUL:

-Biz ko'pincha jasorat uchun mukofot beriladi, deb o'ylaymiz. Aslida, jasoratning o'zi ulug' mukofot ekanini unutib qo'yamiz. Shavkat Rahmon o'zining hayoti bilan, ijodi bilan JASORAT qanchalar ulug' mukofot ekanini isbotlab ketdi. Biz bugun shunga yana bir bora iqrar bo'ldik, dedi.

Shoira Zebo Mirzayevaning chin yurakdan aytgan so'zlari endi ko'zyoshlari qurigan O'sh ahlini,

yaqindan tanishasiz, keyin sizlarning ijodiy namunalaringiz ham gazetada e'lon qilinadi», dedilar. Uchrashuvda O'zbekiston Xalq shoiri Anvar Obidjon Manzura opaga (Shavkat Rahmonning rafiqasi) bag'ishlangan she'rini o'qib berdi.

Viloyat kutubxonasida Shavkat Rahmonning qirg'iz tilida nashr etilgan «OSHKO KACHAN JETEBIZ» kitobining taqdimot marosimi bo'ldi. Unga tarjimon Karmishak Tashbayev (Aliketegin) shoir to'g'risidagi xotiralarini so'zlab berdi.

Shavkat Rahmon tavalludi tantanalarining yakunlovchi qismi Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi O'sh o'zbek akademik musiqali teatri binosida bo'lib o'tdi. Dastlab, Zahiriddin Alouddin o'g'li shirali ohangda Qur'onu Karim tilovati bilan kechani ochdi. Shundan so'ng Alouddin aka: «Birinchisi so'zni shoirning o'zidan eshitsak, menimcha, hamma rozi bo'lsa kerak», dedi. Zalda chiroqlar o'chdi va ekranda Do'rmondagi Yozuvchilar ijod uyining shinam bog' - hovlisida sayr etib yurgan, so'rida yostiqa suyanib o'tirib, she'rlarini tahrir qilayotgan Shavkat Rahmonning nurli siymosi paydo bo'ldi...

Bu hujjatli film taniqli rejissor Nuriddin Qosimov tomonidan suratga olingan, senariy muallifi Usmon Azim (nasib qilsa, shu yilning 2 - oktabr kuni «Shavkat RAHMON» hujjatli filmi O'zbekiston televideniyesi orqali namoyish etiladi, ko'ringlar).

Film yarim soatga davom etdi. Betob shoir xirqiroq tovushda millat dardi, mazlumlarning orzu-armonlari ifodalangan o'lmas she'rlarini o'qib berdi... Film tamom bo'lgandan keyin mingdan ortiq tomoshabin o'tirgan zalda ro'y bergan holatni tasvirlab bo'lmaydi: besh-o'n daqiqa sukunat davom etdi, u yer-ju yerdan piq-piq yig'i tovushi eshitilardi...

Professor Qozoqboy
YO'LDOSHEV:

-Biz har yili Shavkat Rahmon tug'ilgan kunda, atigi bir kungina yig'lab tursak, birinchidan, qalbimizni poklaymiz, qolaversa, o'z vijdonimiz qarshisida, Shavkat Rahmon ruhi oldida ro'y-rost hisobot berib yashashga o'rganamiz, dedi.

Yoz faslida «Tong yulduzi»da «Kechiring, o'rtoq muallim» nomli qissasi davomli e'lon qilingan taniqli yozuvchi Erkin A'zam esa:

mehmonlarni yana bir marta yig'latdi:

-Men Shavkat akani eslasam o'zimni gunohkordek sezaman. Ehtimol, bizning beparvoligimiz tufayli u bevaqt olamdan ko'z yumgandir... Ehtimol, oramizdagi sotqinlik tufayli Shavkat Rahmon bevaqt vafot etgandir...

Zebo opamiz shoir Shavkat Rahmon to'g'risida haqqoniy hujjatli film yaratishga astoydil harakat qilyapti. Biz hozir qisman iqtibos keltirganimiz so'zlarni, xudo xohlasa, o'zi yaratgan asarda batafsil so'zlab berajak.

O'shda Alisher aka Sobirov nomli el-yurt dardi bilan yashaydigan bir inson bor. Shoir tavalludining tantanali marosimi, o'zbek va qirg'iz tilida chop etilgan kitoblari bevosita o'sha kishining sa'y-harakati bilan amalga oshirildi.

Marosim oxirida o'shliklar tomonidan ta'sis etilgan Shavkat Rahmon nomidagi maxsus mukofot o'z egalari topshirildi. Shavkat Rahmon mukofotiga O'zbekistondan birinchi bo'lib rejissyor Nuriddin Qosimov bilan shoir Iqbol Mirzo sazovor bo'ldilar.

Shoir Shavkat Rahmon faqat tug'ilgan kunida eslanadigan ijodkorlar sirasiga kirmaydi, u millat qalbida bir umr yashaydi, har kuni yashaydi.

Shavkat aka «Shohruhmirzo suhbat» nomli o'g'liga bag'ishlangan she'rida:

«Goh senga suyanib o'lay deyman-u,
judayam begunoh,
yolg'izsan, bolam!»,
deb afsuslangan edi.

Hozir Shohruh salkam ikki metrlik yigit bo'lgan, u yolg'iz emas; atrofiga dadasining do'stlari, shogirdlari, ming-minglab chinakam muxlisleri bor. Shu bois Shohruh: «Uylansam, to'yimga butun O'zbekistonni, jumla jahonni aytishim kerak», deb hamon bir to'xtamga kelolmayapti. Aziz gazetxon, siz ham Shavkat Rahmonning o'g'li uylanyapti degan xabarni eshitingiz, bemaol Toshkentning Qorasuv mavzesiga kelavering, u barcha-barchangizning xonadoningizda faqat to'ylar bo'lishini tilab qoladi.

To'ylarda ko'rishguncha sog'-salomat bo'lingizlar!

Olima NABIYEVA,
«Tong yulduzi» muxbiri.



Belgiya Qirolligining
O'zbekistondagi faxriy konsuli
janob Jan Klod Bojan.

O'ZBEKNING KOVUSHI BELGIYADA



SAKSAFONNING VATANI

-Jozibador cholg'u asbobi saksafonni ixtiro qilgan Saksning vatani, «Komissar Migre»ning muallifi Jorj Simenonning yurtiga sayohat qilsak.

-Belgiya Qirolligi Yevropada joylashgan, maydoni unchalik katta emas. Samarqand viloyatidan kichikroq. Avtomobilda 4-5 soatda aylanib chiqsa bo'ladi. Umumiy maydoni - 30519 kv.km, aholisi 11.000.000 nafarni tashkil qiladi. Poytaxti Bryussel. O'z mustaqilligiga 1830-yil erishgan. Belgiyada ikki millat - vallonlar va flamandlar istiqomat qiladi. U yerga sayohat qilgan kishi barcha yozuv va ko'rsatkichlar ikki tilda - fransuz (vallonlar shu tilda gaplashadilar) va flamand tillarida yozilganligiga e'tibor beradi.

Bola va dunyo

QO'L MEHNATI QIMMATDIR

Yevropaliklar ajoyib xalq-da. Ular sharqona udum, milliy qadriyat, qo'l mehnatini juda ulug'lashadi. Belgiya Qirolligining O'zbekistondagi konsulligiga borib, hang-u mang bo'lib qoldim. O'zbekning o'zbekligidan dalolat beruvchi barcha ashyolar xona bo'ylab qo'yilgan. Atlas va adraslar devorga ilingan, qo'lda to'qilgan Xiva gilami yerga to'shalgan, mis ko'zalardan tortib, paxta gulli choynak-piyolalar terib qo'yilgan, stolda pillalar uyumi bo'lsa, guldonda g'o'zapoya ochilgan paxtasi bilan turibdi, rang-barang palaklar divan-kresloga to'shalgan. Eng asosiysi, amriqo kovush yaltiraydigan darajada artilgan bo'lib, xonaning to'riga yasatib qo'yilgan. Do'ppilarning o'ntadan ortiq turini ko'rib, savolga tutdim:

-Konsul janoblari, siz bularni kolleksiya qilib to'playapsizmi?

-Ha. Men ko'plab mamlakatlarda bo'lganman, -deya javob berdi Belgiya Qirolligining faxriy konsuli janob Jan Klod Bojan. -To'g'ri, har bir dunyo o'zining mazmuniga ega. O'zining milliy kiyimlariyu an'analari mavjud. Biroq, O'zbekistondan milliy qadriyatini ulug'lovchi, shu bilan faxrlanuvchi diyorni hech ko'rmaganman. Avvalo bularning ko'pi qo'l mehnati evaziga vujudga keladi. Texnika rivojlangan paytda qo'l mehnati qimmatli hisoblanadi. Tabiiyligi esa yuqori baholanadi.

TA'LIM TIZIMI

-Belgiyalik bolalarning o'qishga bo'lgan munosabati qanday?

-Bu masala bo'yicha gapiradigan bo'lsam, kimningdir ko'ngliga ozor berib qo'yishim mumkin. Chunki o'zbekistonlik va belgiyalik bolalar o'rtasida kattagina tafovut bor. Bizda bolalar tongda 7.30da uydin chiqib, kech 5.30da maktabdan keladilar. Keliboq, kechki ovqatdan so'ng uy vazifasini tayyorlashga o'tiradilar. O'qigan soatlarni hisobga olsak, ikki yil ichida belgiyalik bolalar o'zbekistonlik bolalardan uch baravar ko'p bilim oladilar. O'quvchilarimiz bundan shikoyat qilmaydi. Ular tez va ko'p bilim olishga ishtiyoqmand.

-Ta'lim tizimi qanday?

-Bizda ham boshlang'ich maktabdan keyin 11 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan davrda umumiy ta'lim o'tiladi. O'quvchilar o'zlari qaysi fanga qiziqsa, o'sha fanga ixtisoslashgan sinfda tahsil oladilar. Dars jadvalini ham o'zlari tuzishadi. Bu, o'qishni davom ettirishni istamagan bolalar maktabni tugatib, zavod yoki fabrikalarda texnik xodim bo'lib ishlayveradi degani.

Xabaringiz bo'lsa kerak, bizda ikki xil

o'quv tizimi mavjud: davlat tomonidan va diniy tashkilotlar tomonidan tashkil qilingan maktablar. Hozirgi vaqtda kamdan-kam ruhoniylar maktablarda o'qituvchi bo'lib ishlamoqda. Borgan sari ishonuvchi katoliklar soni kamayib bormoqda. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, Belgiyaning qo'shnisi Fransiyada XX asr boshlarida davlat va din bo'linishi ro'y bergan. Shu voqealardan keyin ko'p diniy tashkilotlar Fransiyadan chiqib ketib, boshqa mamlakatlardan panohtopgan. Shu tashkilotlarga taalluqli o'quv maskanlari juda yuqori, sifatli bilim dargohlari hisoblangan. O'shanday maktablarda bir zamonlar o'qigan belgiyaliklar o'z farzandlarini ham shunday maktablarda o'qishlarini istaydilar. Biroq, hozirgi vaqtga kelib davlat maktablarining mavqei diniy maktablarning mavqei bilan barobar bo'lib qoldi. O'tiladigan fanlar va talablar kuchli.




kitoblardan

bolalar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob oladilar. Chunki ota-onalarning o'z farzandlari bilan shug'ullanishiga deyarli vaqtlari yo'q bo'ladi.

-O'zbekistonlik bolalarga tilaklaringiz?

-O'quvchi yoshlar iloji boricha ko'proq va chuqurroq bilim olishga harakat qilishsin. Chunki qancha ko'p bilim bo'lsa, tevarak-atrofdagi voqealarga o'z munosabatini va o'z fikrini haqqoniy bildira oladi. Ularga axborot olish imkoniyatlari keng ochib berilgan, bundan samarali foydalana olishsin.

Muharrama PIRMATOVA.



-Tinmay izlanish bolalarni toliqtirmaydimi?

-Haftada ikki kun - shanba va yakshanbada o'quvchilarimiz dam olishadi. Shunda ham uyda bekor o'tirmay, turli sport klublariga borib, musobaqa va bellashuvlar uyushtirishadi. Kechki ovqatni yaqinlari va do'stlari davrasida o'tkazishadi. Yana bolalar uchun «Skaut» tashkiloti bo'lib, har bir bola o'zi qiziqqan yo'nalishli guruhga a'zo bo'ladi. Aytaylik, geografiya, biologiya, astronomiyaga yo'naltirilgan guruhlar yoshlarni birlashtirgan holda ish olib boradi. Har bir guruhning o'z boshlovchilari bor. Bu tashkilot shunday qiziqarliki, aslida

18 yoshgacha bo'lganlar a'zo bo'lsalar-da, ixtiyoriy ravishda undan

HORDIQ MASALASI

yuqorilar ham a'zolikka kiradilar.

-Bolalar uchun maxsus nashrlar bormi?

-Juda ko'p. Haftasiga 30-40tadan gazeta va jurnallar chop etiladi. Ular rangli tasvirda bo'lib, mavzulari ham turlicha. Undan tashqari, bolalar dunyoqarashini boyitish maqsadida 4-5 minglab kitoblarni nashr etiladi. Tarixiy voqealarni o'zida mujassam qilgan bunday rangli va hikoyali

OBUNA MAVSUMI BOSHLANDI

Bolalar-u kattalar, otalar-u onalar, shuningdek, viloyat xalq ta'limi boshqarmalarining boshliqlari, eshitmadim demanglar. Eshitganlar jilmanglar, «Tong yulduzi» gazetasining obuna indeksi-yu narxini yaxshilab ko'rib, bilib olinglar. Narxi hamyonbop, ma'nosi ziyobaxsh, ijodkorlarning birinchi pillapoyasi bo'lmish gazetaga obuna boshlandi. «Matbuot tarqatuvchi» aksiyadorlik kompaniyasining iqtisod bo'limi boshlig'i Gorilskaya Tatyana Fyodorovnaning ma'lumotiga ko'ra, bu yil obuna masalasi soddaroq ko'rinishda katalok sifatida e'lon qilindi. Avvallari obuna narxi barcha viloyat uchun turlicha bo'lgan bo'lsa, bu yil ikkita katalok bo'yicha tuzildi. Toshkent shahri obunachilari uchun bir oyga: abonent qutisidan olganda - 290 so'm, uyga eltib berilganda - 340 so'm, bir yillik narx: abonent qutisidan olganda - 3480 so'm, uyga eltib berilganda 4080 so'm deb belgilandi. Barcha viloyat obunachilar uchun bir xil: bir oyga abonent qutisidan olganda - 400 so'm, uyga eltiganda - 437 so'm, bir yillik narx: abonent qutisidan olganda 4800 so'm, uyga eltiganda 5244 so'm deb belgilandi. Obuna indeksi - 198. Shoshiling, obuna bo'ling. Kundalik harajatlarga ishlatadigan pulingizdan 15 so'mini ziyoga ajratsangiz, bir yilga obuna bo'larkansiz.



(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda).

- Ko'ktoy, Ko'ktoy, mah-mah...

Ko'ktoy menga bir qarab qo'ydiyu, parvoyam qilmadi.

- Jarda o'g'ri yo'q, Ko'ktoy bor, - dedim ammam bilan O'g'iloyni opa etib kelishgach.

Ammamlar jar yoqasiga kelib, atrofni diqat bilan ko'zdan kechirdilar-da:

- Hay, Ko'ktoy o'lgur, - dedilar, - baqqa ke...

Ana endi Ko'ktoy chopib kelsa kerak degan o'yda edim. Ko'ktoy ammamgayam parvo qilmadi. Aftidan u biz bilmaydigan bir nima bilan mashg'ul edi.

- Voy, jonivor Ko'ktoy, qopqonga tushib qopti shekilli, - dedi O'g'iloyni opa. Bo'zsuv bo'ylarida tulki, chiyabo'rilar ko'p bo'lar, kechalari kelib tovuqlarni qiyratib ketishardi. Ularni tutish uchun pana-pastqam joylarga qopqon qo'yilardi.

Yuragim jaz etib achishib ketdi. Bechora Ko'ktoy, oyog'idan ajrabdi-da. Qopqonga ilingan chiyabo'riniyam, tulkinin ham ko'rganman. Qopqonning o'tkir tishlari panjalarini majaqlab tashlagan edi. Hatto qopqon bitta chiyabo'rining panjasini cho'rt uzib tashlagan. Chiyabo'ri bo'lsa, qochib qolgan. Ko'ktoyni qopqondan o'zim bo'shataman endi, qopqonning og'zini qandoq qilib ochishni bilaman. Ko'ktoyni tepasiga bordimu hangumang bo'lib, qotib qoldim.

- Ammaaa, - deya yig'lab yubordim. Nimaga ammamni chaqirdimu nimaga yig'lab yubordim, o'zim ham bilmayman. Ammam bilan O'g'iloyni opa etib kelishdi. Nuqul ammamni quchoqlab hiqillayman. Saryog'ni Ko'ktoy o'g'irlagan edi. Ko'ktoy bir panjasi bilan qopqonni bosib, ikkinchi panjasini bankaga tiqib, saryog' yalab o'tirardi. Ammam hozir qo'lidagi kosov bilan boshiga tushirsalar kerak deb o'ylovdim. Unday qilmadilar. Ko'ktoyni ishiga ular ham hayronu lol edilar. Men qamchin bilan itga tashlanmoqchi bo'ldim. Ammam ushlab qoldilar:

- Qo'y, bolam, shuning nasibasi ekan, Ko'ktoyni odamlarga ko'p foydasi tegadi...

Ammamlar sabr-toqat bilan banka bo'shashini kutib turdilar. Axir bunaqa banka qishlog'imizda bitta-yu bittaligini aytdim-ku. Axiyri Ko'ktoyni nafs qonib, qo'lini bankaning ichidan tortib oldi-da, bizga bir qarab, jilpangladi. Men bankani olmoqchi bo'ldim.

- Tegma, - dedilar ammam, - boshqa idish bo'lganda qatron qilardik, bankani qatron qilib bo'lmaydi, endi u harom, - dedilar-da, kosov bilan bir urib chil-chil qildilar.

- O'l, o'rtoq, hech bo'lmasa tuz sop qo'ysa bo'lardi-ku, - dedilar O'g'iloyni opa achinib.

- Bo'maydi, - dedilar ammam bosh chayqab. - Harom narsaga qandoq tuz sop qo'ysan?!

Shundan keyin davralarda Ko'ktoyni qanday qilib bankadan saryog'ni olib eganlari anchagacha gap bo'lib yurdi. Keyinchalik uning yoniga «qovun ovi» ham qo'shildi.

QOVUN OVI

Oldi qovunlar dum berib, dehqonlarning kaftlari qichisha boshlagan... Kolxozning otboqari Karimboy choldan tortib, aravakashlargacha shoshib qolishgan. Kolxozda bor-yo'g'i ikkita avtokachka bor. Avtokachka deganlari poson arava. Rusiyadan keltirilgan. G'ildiraklari og'ir. Tekis yo'lda yaxshi yuradi. Qirli joylarda otlar tortolmay qiynaladi. Pastga tushishda arava og'irlik qilib, otlarni surib ketadi. Shuning uchun g'ildiraklariga tormoz o'rnatilgan. Aravakash tormozni bor kuchi bilan bosadi. G'ildiraklar chiyillab aylanadi. Ba'zan tormoz deganlari uzilib otlarni surib ketadi, mayib qiladi. Aravakashlar «o'zimizning aravalar ming marta yaxshi edi, bu matoh otniyam, aravakashniyam o'ldiradi» deb so'kinishardi. Ammo shahar joyga avtokachkaga ruhsat bor edi. Shuning uchun avtokachka talash, navbat bilan berilardi. Qani endi qovun-tarvuzlar ham navbati bilan pishsa. Yo'q, hammaniki bir vaqtda pishadi. Qishloqni obinovvot, bosvoldi, ichi qizil, cho'giri, ananas, ko'kcha degan qovunlarning xushbo'y hidi tutib ketadi.

Bir kuni bolalar orasida g'alati mish-mish tarqab qoldi. Nimaymish poliz qorovuli Karim aka kechasi Ko'ktoy bilan qovun ovlarmish.

Kolxoz raisi Qozoqboy aka tepadan kelgan mehmonlarni faqat o'sha qovun bilan siylarmish. Ko'ktoy ovlagan qovun shirinligidan labni-labga yopishtirib qo'yarmish...

Rosa boshimiz qotdi. It bilan Bo'zsuv bo'ylarida tulki, tustovuq, jayra ovlashlarini eshitardik. It bilan qovun ovlash... O'ylab o'yimizga etolmas edik.

Karim aka baland so'kichak ustida qorovullik qilardi. Bu erdan polizzor kaftdek ko'rinib turardi. Biz qo'yarda-qo'ymay Karim aka qovun ovlashga chiqib, «sir»ni



bilmoqchi bo'ldik. U kishi: «Bitta «Bayanshirin» obkesalaring ko'rsataman» dedi. Karim aka aytgan narsa musallas edi. Pul to'plab, musallas oldik-da Karim aka qovun ovlashga chiqdik. Karim aka musallasni ichib, «E, quyosh»ni boshlab yubordilar. O'sha paytlarda «Tohir va Zuhro» kinosi urf bo'lgan. Hammaning og'zida shu qo'shiq edi. Karim aka yana allaqancha qo'shiqlar aytdi. Ovozi hirillab qolguncha aytdi. Allaqachon qorong'i tushgan, bizni esnoq tutib, uyqu bo'sar, ovdan darak yo'q edi. Oymoma shunaqangi chiroyli to'lgan, yon-atrofni uzoq-uzoqlargacha yoritardi. Biz bunaqa oydin kechalarda bekinmashoq o'ynashdan ko'ra kitob o'qishni yaxshi ko'radik. Kim xuddi kunduzgidek sharillatib o'qisa, o'shaning ko'ziga besh ketardik. Bir xil og'aynilarimiz o'qiy olmasdi. Biz ularni «traxoma» derdik. Shunaqa ko'z kasalligi tarqalgan edi.

- Ja, qiziqsiz-da, Karim aka, - dedim men u kishidan xafa bo'lib.

- Gapir, akang bo'yingdan, nima deysan?

- Musallasni ichvoldiz, ov qachon?

Karim aka tmog'ini qirib, so'ridan pastga qarab tupurdi-da, oymomaga qarab:

- O'hho'o'o', - dedi bamaylixotir, - ovga hali uzoq-ku. Oymomani ko'ryapsanlarmi-a, xozir osmonning yonboshida turibdi-a? Yurib, yurib manovi qoq miyaga kelsin, - deb kallasini ko'rsatdi. - O'shanda tikka tursang soyang yo'qoladi. Uqdilaringmi? Ov o'shanda boshlanadi.

- Hozir boshlayqalaylik, jon Karim aka, boshlasayiz ertaga yana bitta musallas obkelib beramiz.

- Shu bugunoq ikkita qilib kelsalaring o'larmidilaring, qurumsuqlar, odamni na uyog'lik, na buyog'lik qilib qo'ydilaring.

- Bo'pti, ertaga ikkita qilib obkelamiz, ovni boshlay qoling, - deya og'zimizni kappa-kappa ochib esnaymiz. Yig'lagudek bo'lib yalinamiz.

- Voy, tushunsalaring-chi, enag'arlar, oy manovi teppaga kemaguncha bo'maydi deyapman-ku, - dedi-da, pastga engashib,

Erkin MALIKOV

ha akangni Ko'ktoyni, yotibsanmi, - deb qo'ydi. - Itchalik ham sabrlaring yo'g'a, nomardlar.

Karim aka qovun ovlashga chiqib, «sir»ni

- Ovni qattan boshlaysiz, Karim aka?

Karim aka tilini chiqarib chaksa qilib yana pastga tupurdi. O'zi bu odamning odati ichvolsa tupiraverar ekan. Halidan beri «kih-qih...»layverib jonimizga tegib ketdi.

- Qattan bo'lardi, bo'yingdan akang, senikidan-da, - dedi. Keyin boshqa o'rtoqlarimniyam nomini sanay ketdi.

- Ey, - dedim hafsalam pir bo'lib, - kettik bolalar, shunchaki qovun o'g'irlash ekan-u ishonib o'tiribmiz-a...

Bolalarning uyqisi o'chib, Karim aka qovun ovlashga chiqib, «sir»ni

- To'lang «Bayanshirin»ni.

- Ha, to'lang.

- Rezinka ishtonbog' omoqchiydim attordan.

Karim aka so'kindi:

- Rezinka ishtonbog'mish, boshingga urasanmi uni? Omonatdan-omonat. Rezinka ishtonboqqa ishonib bo'larkammi? Gappi qaranglar... Xo-xo-xooo... o'zimiznikidan qo'ymasin. Kurmak qilib bog'lab qo'ysang biron u yoqda tursin, o'zingam echolmiysan. Duch kelgan joyda behavotir, bemalol uyqini urovrasan, akang bo'yaringdan... xo-xooo...

Darhaqiqat, biz rostdanam rezinka ishtonboqqa oshiq bo'p qolgan edik. Cho'milishga ja bop edi. Bir zumda echasanu suvga sho'ng'iysan. Chiqasanu kiyib olasan. Bunaqa ishtonbog'li ishtonni birinchi bo'lib raisning o'g'li Ilhom kiydi. Biz u yoqqa o'tsak ham, bu yoqqa o'tsak ham ishtonini tushirib, Ilhomning rosa jig'iga tegardik. Ammo cho'milishga borganda, hammadan oldin Ilhom suvga kalla tashlar, suvning «qiz»ligi unda ketardi. Bu bizga judayam alam qilardi. Shunga hamma o'zicha pul yig'ib, attor kelishini kutardi. Mana endi Karim aka qovun ovlashga chiqib, «sir»ni

Karim aka rezinkani pulini bermasa so'kichakli qorovulxonasini buzadigan bo'p qoldik. O'ziyam liqillab zo'rg'a turardi.

- Hazillashdim, it emganlar, hazillashdim. Senlarning qovunlaring hammani qo'yib ov qilishga arzirkanmi. Ha, itga bersang it emaydi senlarnikini. Ov shetta bo'ladi, shetta. Senlar qovunga bir hovuchdan ko'mma solgan bo'lsalaring, men har birining tagiga bir zambildan go'ng tashlatganman, enag'arlar.

Dehqonlar qovun-tarvuz ekishdan oldin ikki ketmon bo'yi chuqurcha qazishib, ularni ot go'ngi bilan to'latib chiqishardi. Keyin qayta ko'mib, ketmon orqasi bilan urib qo'yishardi. Buni ko'mma deyishardi. Urug'lar o'sha ko'mmaga ekilardi. Ot go'ngi qizib, urug'ni tez etiltirardi. Havo sovib ketsa o'zidan issiq chiqarib ikki, uch quloq bo'lgan nihollarni bahorgi ayoqlardan asardi. Mol go'ngi solishmasidi. Qizdirmaydi, ekinni ildiziga qurt tushirib yuboradi, deyishardi. Shundog'am mol go'ngi erga ortmas, qish bo'yi yig'ilib, yozda tappi qilib, qishga g'amlanardi.

Karim aka qovun ovlashga chiqib, «sir»ni

(Davomi bor).

Ustoz oq yo'l tilaydi

OQ YO'L, MOHINUR!

Shogirdim Mohinur Qudratillayeva ko'pdan buyon badiiy ijod bilan shug'ullanadi. She'rlari «Shofirkon ovozi», «Sado», «Turkiston» kabi mahalliy va markaziy ro'znomalarda yoritilgan. Mohinur bir she'rda:

«Oppoq orzularim ushalsin deya,

Tonglar peshvoz chiqar mening yo'limga», deya yaxshi niyat qiladi. Orzular cho'qqisi sari parvoz etishni niyat qilayotgan ijodkor shogirdimga kelajaging porloq, peshonang esa hamisha yarqiroq bo'lsin, deyman.

Omon ABDULLA,

Shofirkondagi 1-son o'quvchilar Ijodiyoti Markazi huzuridagi «Na'matak» adabiy to'garagi rahbari, O'zbekiston jurnalistlar uyushmasi a'zosi.

BU DUNYONI KEZAMAN

Men yuraman, qo'limda qalam,

O'z dunyomni ko'rgim keladi.

Ko'kragimni baland ko'tarib,

Iqbolimni ko'rgim keladi.

Kitoblarni bir-bir varaqlab,

Bobolarim bilgim keladi.

Shunday bir kun, kunday charaqlab,

O'z dunyomni qurgim keladi.

XALQIM

Buyuk qudratingdan,

Hayratda dunyo.

Ilitjo qilaman

Asrasin xudo!

Mohinur QUDRATILLAYEVA,

Shofirkon tumanidagi

4-o'rta maktabning

6-sinf o'quvchisi.



Aziz bolalar, Siz shoir Siddiqxo'ja Shoshiy she'rilarini, nasihat va maslahatlarini gazetamiz sahifalarida o'qigansiz. Chindan ham «Tong yulduzi»ning chin muxlisi, sizlarning dono buvangizga aylangan Shoshiy shoir hamisha bilimga chorlar, oqil farzandlar kamolidan quvna yashaguvchi inson edi. Afsus... Oltmish sakkiz yoshida oramizdan ketgan insonning samimiyati, tahririyatimizga kelib qalbimizni nurga, ko'zlarimizni hayot zavqidan baxtiyorlikka undovchi nigohi, sabru bardoshga, irodani shakllantirishga undovchi so'zlari endi uzoq vaqt suhbatlarimizga mavzu bo'ladi. Sizga aytgan topishmoqlarini esa hali ko'p topib, aqlingizni charxlaysiz, deb qolamiz.

Hamisha uyg oq xotira

TOPISHMOQ SHE'R

*Kecha bizning Oybekxon,
Oldi ellikta daftar.
Unga qo'shib shuncha son,
Sotib oldi oq kaptar.*

*Besh ruchka, o'nta qalam,
Hamda to'rtta chizg'ich.
Har xil rangli kubik ham,
Yana bir juft o'chirg'ich.*

*Qo'shganda hammasini,
Bir yuz o'ttiz bo'ladi.
Kubiklarning sonini,
Toping, kimlar biladi?*

*O'sar ko'kka bo'y cho'zib,
Quloqchay bargin yozib.
Xipcha bel, zarrin soqol,
Tishlari zich, dur misol.*



*Oppoq libos egnida,
Dosh qozonning yonida.
Turli taom pishirar,
El sog'lig'in oshirar.
Doim turar azonda,
Kim o'zi u...*



*Yo'l-yo'l parda ochildi,
Xonaga nur sochildi.
Uyda bo'lishdi mehmon,
Lofsiz, birmas, ming bir jon.*

Xoji Siddiqxo'ja SHOSHIY.

KICHIK MUSAVVIRNING KATTA ASARI

Aziz bolajonlar, gazetamizning avvalgi sonlaridan birida respublika o'quvchilar saroyida bo'lib o'tgan «Sport - tinchlik elchisi» deb nomlangan rasmlar ko'rgazmasi haqida ma'lumot bergandik. Afsuski, birgina maqola orqali tanlov g'oliblarining bari haqida so'z yuritishning imkoni bo'lmagandi.

Bugun sizni ana shu ko'rgazmaning yana bir ishtirokchisi – ishlari tanlovda uchinchi o'ringa loyiq topilgan tengdoshingiz Shokir Karimov bilan tanishtirmoqchimiz.

Shokirjon Surxondaryo viloyatining Angor tumanidan. 7 yoshli chog'idanoq rasm chiza boshlagan bolakay tumandagi 3-o'rta maktabning 9-sinfida tahsil olyapti. Rang-tasvir yo'nalishida chizgan rasmlari, portret va natyurmortlari maktabning ko'rgazmalar zalini bezab turibdi. Bir necha bor rasmlar tanlovida ham ishtirok etib, faxrli 1-, va 2-o'rnlarni egallagan. –Mazkur ko'rgazmaga «Yugurish mashqi», «Boks qiroli», «Chavandoz» kabi 8 ta ishinni taqdim qilgandim. O'ta talabchan hakamlar hay'ati a'zolariga «Men chempion bo'ldim» deb nomlangan rasmim ma'qul bo'ldi chog'i, 3-o'ringa loyiq topishdi.

To'g'ri, birinchi o'rinni ololmadim. Lekin bundan sira xafa emasman. Aksincha, tanlov sabab o'z ustimda yanada ko'proq ishlashim, izlanishim lozimligini anglab yetdim, - deydi kichik musavvir.

Biz Shokirjonni «kichik musavvir» deb atadik va ulg'aygach katta, mohir musavvir bo'lishiga umid bog'ladik. Uning chizgan rasmini ko'rib, balki siz ham fikrimizga qo'shilsiz.



Men chempion bo'ldim

FERUZA.

Uyimizga tez-tez mehmon kelib turadi. Kelgani yaxshi-da. Rosti, odatdagi kunlardan ko'ra dasturxonimiz yanada to'kin, serfayz bo'ladi. Bir-birimizga o'ta xushmuomala bo'lib qolamiz. Sababi, dadam ko'p tayinlaydilar: Mehmon, harakatingizdan ham, so'zingizdan ham ranjib ketmasin. To'g'ri, mehmonlar ham turlicha bo'ladi. Biri mezbon bolalarga parvo qilmay, uyni

sovutayotсам «ichvoldi» deya katta mehmonga surkalla boshladi. Darrov o'z piyolamdan ozgina choy quyib berdim. Ho'pladi-yu, janjalning kattasini boshladi. –Shirin emas ekan. Oqqand



MEHMONCHA

tomosha qiladi. Biri esa (Hikoya) soling!- dedi. Ikki dona zimdand kuzatgani- oqqand soldim. kuzatgan. Bu galgi mehmon esa -Oz bu! Yana qand soling!- dedi yerga boqib. Yana qand soldim. o'g'ilchasi bilan keldi. Yaxshisi Birozdan so'ng esa «Qani ismlarini aytmaganim ma'qul. qandim?», desa bo'ladimi. Bazo'r Katta mehmon hazilkash-u chidab, «erib ketdi» mehribon ekan. Darrov tanishib, dedim. sirlashib ham oldik. -Yo'q. Siz olgansiz Tortinmay nima qandimni. Hoziroq topasiz!- dedi kerak bo'lsa yig'lamsirab. so'raydi. Biz ham uyalmay hatto -Ichib ko'ring choyni. Juda bir dasturxonda ovqatlandik. Katta shirin bo'lib ketdi-ku!- dedim mehmon aslo xijolat tortmay bosiqlik bilan. qaytanga yayrab ketdi.

Ustoz ijodi

Kichik mehmon, ya'ni bilmay tishini-tishiga bosib, hadeb mehmoncha esa qoshlarini chimirar va boshini ushlab qo'yardi. Mehmoncha esa beparvo hamon yangi bahonalar topish bilan band. Qo'lidagi to'g'ram nonni shaxt bilan choyga botirgandi, kutilmaganda piyola ag'darildi. Shirin choy to'kilib, piyola stoldan polga tushdi. Xullas, piyola ham sindi, janjal ham tindi.

-Endi rosa to'lib ketdi. O'zaytiring!- dedi. Yana ozgina choyni qayta choynakka quydim. Mehmoncha piyolani ushlab: -Issiq ekan. Sovuting!- dedi. Puflab

Katta mehmon nima deyishini Katta mehmon nima deyishini

Vali AHMADJON.

Ochil dasturxon

DUDLANGAN TVOROG'LI OLMA

Kerakli masalliqalar:

6 ta olma, 400 gr. tvorog, 100 gr. mayiz, 20 gr. vanilin, 20 gr. shakar.

Tayyorlanishi: Olmalarni yuvib, ichini o'yib olamiz. Boshqa idishda tvorogga mayiz bilan vanilinni qo'shib aralashtiramiz. O'yilgan olmalarning ichiga tayyorlangan masalliqni solib, ustiga shakar sepamiz.

Endi ularni mantiqasqonning pallalariga terib, suvi qaynayotgan holda 5-7 daqiqaga qo'yamiz. Mazasi totli olmalarni likopchaga terib, dasturxonga tortamiz.



LAVLAGILI SALAT


Kerakli masalliqalar:

2-3 dona qizil lavlagi, 5-7 dona tuxum, 300 gr. go'sht, bir bosh piyoz, sarimsoq piyozning 2 bo'lasi, mayonez.

Tayyorlanishi: Lavlagini butunligicha mantiqasqon pallasiga teriladi. Tuxumlar yuvilib, lavlagi ustiga terilib, gazga 20 daqiqaga qaynayotgan suv bug'iga qo'yiladi.

Mayda to'g'ralgan go'shtni to'g'ralgan piyoz bilan tovada yog'da qovurib olinadi.

Endi yuqoridagi barcha masalliqalarni ustma-ust qilib teramiz. Avval go'sht, keyin lavlagi, ustiga sarimsoq piyozni terib, eng ustiga mayonez surtiladi. Uning ustiga maydalangan tuxumni seping. Likopchaga salat bargi qo'yib, unga salatni solib, dasturxonga tortish mumkin.



Yoqimli ishtaha!

Nargiza ABDULLAYEVA.

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi
bolalari va
o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:
Umida
ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:
Turobjon JO'RAYEV,
Shuhrat AHMEDOV,
Botir UBAYDULLAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir
o'rinbosari),
Abdusaid KO'CHIMOV,
Nurxon NAFASOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
022-raqam bilan
2003-yil 11-dekabrda
ro'yxatdan o'tgan.

Noshir
«O'zbekiston»
nashriyat-matbaa
ijodiy uyi.
Gazeta
«O'zbekiston»
nashriyat-matbaa
ijodiy uyi
kompyuter bo'limida terib
sahifalandi va
chop etildi.
Gazeta haftaning dushanba
kuni chiqadi.
Hajmi A-3,
2 bosma taboq.
Adadi - 14 299
Buyurtma N: J 1648

Dizayner va sahifalovchi:
Otabek
ESHCHANOV.
Navbatchi:
Jamila ERDONOVA.

Rassom:
Nodira MIRZAYEVA.

Manzilimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
tong_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-10-38
144-38-10
144-63-08
Tel./ faks:
(99871) 144-24-45